

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Ya. G'ulomov nomidagi Arxeologik tadqiqotlar instituti

Direktor



Berdimurodov Amridin Ergashovich

Tarix fanlari nomzodi

uzarchae@academy.uz

(+998 66) 2321513

Bog'lanish

Manzil: 140151. Samarqand sh., V.Abdullaev ko'chasi, 3

Direktor: Berdimurodov Amridin Ergashovich

Telefon: (+998 66) 2321513

Faks: (+998 66) 2321513

Sayt: archaeology.uz



Institut 1970 yil 19 avgustda O'zbekiston Vazirlar Maxkamasining № 426 qarori asosida O'zR FA Tarix va arxeologiya instituti bazasida tashkil etilgan. Arxeologiya instituti 1970 yil 30 sentyabrdan Samarqand shahrida o'z faoliyatini boshladi va 1988 yilda institutga uning tashkil etilishida katta hissa qo'shgan olim, O'zRFA akademigi Yahyo G'ulomov nomi berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish niyatida takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» [qarori](#) asosida YA. G'ulomov nomidagi Arxeologik tadqiqotlari nstituti sifatida qayta tashkil etildi. Shu vaqtdan boshlab moddiy va ma'naviy madaniyat tarixini tiklash uchun qadimgi yodgorliklarni tadqiq qilish, O'zbekistonning qadimgi davri yodgorliklarini davrlashtirish, mintaqaning sug'orilishi tarixi, arxeologik yodgorliklarni restavratsiya va konservatsiya qilishning ilmiy uslublarni ishlab

chiqish institutning asosiy tadqiqot sohasiga aylandi. Shu bilan bir qatorda O'zbekiston xalq xo'jaligi qurilish hududlaridagi tarixiy madaniy yodgorliklar ro'yxatini tuzish ishlarini tashkil etish kabi amaliy ishlar ham olib borila boshlandi.

Institut ilmiy xodimlarining tadqiqotlari tufayli tosh davriga oid o'nlab: Paltou va Obiraxmat g'or manzilgohlari, Ko'lbuloq, Qo'tirbuloq, Xo'jamazgil kabi ochiq turdagi manzilgohlar, Uchtut, Ko'lbuloq, Qopchig'ay, Vaush singari tosh davri kremniy sanoati ustaxonalari, Qo'shilish, Obishir g'ori, Machay g'ori kabi mezolit manzilgohlari; Amudaryo va Zarafshon havzalaridagi yuzlab neolit davriga oid manzilgohlar o'rganilib, O'zbekiston halqlarining qadimgi davrdagi madaniyati Yevropa va Janubiy - Sharqiy Osiyo madaniyatlari o'rtasidagi ko'priq vazifasini bajarganligi aniqlandi.

Bronza davri xususida yangi tadqiqotlar olib borildi. Shimoliy va Markaziy mintaqalardagi chorvador va dehqonchilik madaniyati o'ldir Tozabog'yob, Suyorgan, Zamonbobo madaniyatlarining Farg'ona vodiysi hududidagi Chust madaniyatiga xo'jalik-iqtisodiy jihatdan yaqin ekanligi isbotlandi.

O'zbekiston janubida ilk marotaba fan uchun yangilik bo'lgan, ilk dehqonchilik madaniyatiga oid aniq rejali turar joylar qurilishi, mustahkam mudofaa, murakkab me'moriy an'analar, maxsus hunarmandchilik sohalari - kulolchilik, metallurgiya, suyak va yog'ochga ishlov berish, to'qimachilik va zargarlik sohasiga ega bo'lgan Sopolli madaniyati qashf qilindi. Bronza davriga oid bo'lgan Jarqo'ton yodgorligining tadqiq qilinishi natijasida, qadimgi Baqtriya tamaddunining bosh qarorgohga va yirik jamoat sajdagohi - ibodatxonaga ega bo'lgan ilk shahar madaniyati ko'z oldimizda namoyon bo'ldi.

Ushbu tadqiqotlar O'zbekiston ilk dehqonchilik madaniyati tarixini bir necha ming yilliklar qadim ekanligini isbotlab qolmasdan, balki bronza davri aholisining iqtisodiy, moddiy va ma'naviy madaniyatini hamda shahar hayoti vujudga kelishi yo'llarini ochib berdi.

Respublikamizning Samarqand, Buxoro, Toshkent, Termiz kabi qadim shaharlari tarixini o'rganishga doir maxsus tadqiqotlar olib borildi. Afrosiyob shahar yodgorligida o'tkazilgan sistematik qazuv ishlari natijasida uning vujudga kelishi bosqichlari, rivojlanishi dinamikasi xususidagi yangi ma'lumotlar olindi.

Buxoro, Termiz shaharlarining paydo bo'lishi va iqtisodiy taraqqiyoti davri aniqlandi, G'arbiy Sug'd va Tohariston antik davri madaniyati, e'tiqodiy komplekslari va buddaviylik yodgorliklari ochib o'rganildi.